Pashshat yodgorligi

O‘zR FA Milliy arxeologiya markazi ilmiy xodimlari hamda Angliyaning Kembrij universitetining King’s Kolleji olimlari hamkorlikda Qizilqum cho‘lida dala qidiruv ishlarini olib borildi.

Pashshat yodgorligidagi tadqiqotlarda bir necha dona paleolit davri tosh qurollari va o‘rta asrlarga oid sopol parchalari aniqlandi.
Shuningdek, yodgorlik atrofida yer qatlamlari stratigrafiyasi o‘rganildi. Ulus qishlog‘i yaqinidagi Kattaachchiq ko‘l atrofida dala qidiruv ishlari olib borildi.

Uchtut paleolit davri ustaxonasi qiyosiy tahlil uchun ko’zdan kechirildi. Zarafshondan 130 km shimoliy g‘arbidagi Suketi (suv ketti) ko‘l atrofi tadqiq qilish natijasida paleolit va neolit davri tosh qurollari aniqlandi. Natijada, Qizilqum cho‘li qadimdan odam izlari bo‘lganligidan dalolat beruvchi ashyolar qo‘lga kiritildi. Kelajakda King’s Kolleji olimlari bilan hamkorlikda ishlash uchun dastlabki qadamlar qo’yildi.